

# O‘ZBEKISTONDA TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATINING SHAKLLANISHI VA FAOLIYATI: TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA

**Raximova X.R.**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti 5-kurs talabasi  
Ilmiy rahbar tfn, prof.Z.A.Ilhomov

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida tez tibbiy yordam xizmatining shakllanish tarixi va uning Toshkent shahri misolidagi faoliyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sobiq sovet davridagi mavjud markazlashgan tizimdan zamonaviy yuqori texnologik shoshilinch yordam modeliga o‘tish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek Toshkent shahridagi tibbiy logistika tizimini raqamlashtirish va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tez tibbiy yordam, Toshkent shahri, shoshilinch tibbiyot, sovet davri, raqamli sog‘liqni saqlash, tibbiy logistika, islohotlar, reanimobil.

## СТАНОВЛЕНИЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СЛУЖБЫ СКОРОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ В УЗБЕКИСТАНЕ: НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА ТАШКЕНТА

**Рахимова Х.Р.**

Студентка 5-го курса Исторического факультета Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

Научный руководитель: кин., профессор З.Илхамов

**Аннотация:** В данной статье проводится научный анализ истории формирования службы скорой медицинской помощи в системе здравоохранения Узбекистана и её деятельности на примере города Ташкента. В ходе исследования освещены этапы перехода от централизованной советской системы к современной высокотехнологичной модели экстренной помощи. Также выдвинуты практические предложения по цифровизации системы медицинской логистики в столице и повышению качества услуг оказываемых населению.

**Ключевые слова:** Скорая медицинская помощь, город Ташкент, экстренная медицина, советский период, цифровое здравоохранение, медицинская логистика, реформы, реанимация.

## FORMATION AND ACTIVITY OF THE EMERGENCY MEDICAL SERVICE IN UZBEKISTAN: THE CASE OF TASHKENT CITY

**Rakhimova Kh.R.**

5th-year student, Faculty of History, Nizami Tashkent State Pedagogical University (National Pedagogical University of Uzbekistan)

Scientific Advisor: PhD in History, Professor Z. Ilkhamov

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the history of the formation of the emergency medical service in the healthcare system of Uzbekistan and its activities on the example of Tashkent city. The study highlights the stages of transition from the centralized Soviet system to the modern high-tech emergency care model. Practical proposals for the digitalization of the medical logistics system in the capital and improving the quality of services provided to the population are also put forward.

**Keywords:** Emergency medical service, Tashkent city, emergency medicine, Soviet period, digital healthcare, medical logistics, reforms, resuscitation.

**KIRISH:** Bugungi kunda tez tibbiy yordam xizmati dunyo miqyosida inson hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlarda ushbu xizmat zamonaviy texnologiyalar, malakali mutaxassislar va tezkor boshqaruv tizimlari asosida faoliyat yuritib, favqulodda holatlarda aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatishni ta‘minlamoqda. Tez tibbiy yordam tizimi nafaqat kasallik yoki jarohat yuzaga kelganda, balki turli ofatlar, yo‘l-transport hodisalari va boshqa kutilmagan vaziyatlarda ham birinchi bo‘lib tibbiy xizmat ko‘rsatadigan muhim tizim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham tez tibbiy yordam xizmatiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda ushbu sohani rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy tez yordam avtomobillari bilan ta‘minlash hamda tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining tez tibbiy yordam xizmatiga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda, xizmat ko‘rsatish sifati esa izchil ravishda yaxshilanmoqda.

Tez tibbiy yordam xizmatini rivojlantirish va tartibga solishda qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Aholi sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” gi Qonuni sog‘liqni saqlash tizimining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi [1.]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi PQ-3583-son qarori (“Tez tibbiy yordam tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”) ushbu sohani modernizatsiya qilish, zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish va xizmat sifatini oshirishga qaratilgan [2.].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-dekabrda PF-5270-son Farmoni (“Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”) sog‘liqni saqlash tizimini, jumladan tez tibbiy yordam xizmatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi [3.]. Vazirlar Mahkamasining tez tibbiy yordam faoliyatini tashkil etish va

moliyalashtirishga oid qarorlari ham ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim o‘rin tutadi.

**Dolzarbligi.** Bugungi kunda aholi salomatligini muhofaza qilish va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish davlat ijtimoiy siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi Tibbiyot fani va amaliyotining xalqaro taraqqiyot darajasi shuni ko‘rsatadiki tez tibbiy yordam xizmati inson hayotini saqlab qolishda birlamchi va eng muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi Tanlangan mavzuning dolzarbligi shundan iboratki Toshkent shahri misolida ushbu tizimning tarixiy shakllanish bosqichlarini va sovet davridan bugungi kunga qadar bosib o‘tgan transformatsiya jarayonlarini ilmiy tahlil qilish zamonaviy tibbiy logistikani to‘g‘ri tashkil etish uchun xizmat qiladi. So‘nggi yillarda respublikamizda tez tibbiy yordam sohasining rivojlantirilishi va xizmat ko‘rsatish sifatining yuksaltirilishi borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 16 iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi PQ-283-sonli Qarori orqali Respublika tez tibbiy yordam markazi hamda uning 14 ta hududiy filiallarini tashkil etilishida katta o‘rin tutdi [4.416.].

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmatining shakllanish tarixini o‘rganish va sovet davridagi modeldan milliy tizimga o‘tishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Adabiyotlar tahlili jarayonida mazkur mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Xususan, tez tibbiy yordam tizimini rivojlantirish va boshqarish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan. Jumladan, A.S. Sodiqovning 2020-yilda himoya qilingan “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini boshqarishni takomillashtirish” [5.156.] nomli dissertatsiyasida tez tibbiy yordam xizmatining tashkiliy asoslari va boshqaruv mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, Q. Abdurahmonovning 2021-yilda nashr etilgan “Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti”

[5.156.] nomli monografiyasida tibbiy xizmatlar, jumladan tez tibbiy yordam tizimining iqtisodiy samaradorligi va moliyalashtirish masalalari keng yoritilgan.

Bundan tashqari, Sh. Karimovning 2019-yilda chop etilgan “Tibbiyotda boshqaruv asoslari” [6.180.] monografiyasida sog‘liqni saqlash tizimini boshqarishning zamonaviy usullari, shu jumladan tez tibbiy yordam xizmatini samarali tashkil etish yo‘llari bayon etilgan. Ilmiy maqolalar orasida esa N. Islomovning 2022-yilda e‘lon qilingan “Tez tibbiy yordam xizmatida sifat menejmenti” nomli maqolasida xizmat sifatini oshirish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish masalalari tahlil qilingan. Xorijiy tadqiqotchilar orasida World Health Organization (WHO) tomonidan 2018-yilda chop etilgan “Emergency Medical Services Systems” [7.98.] asarida tez tibbiy yordam tizimining xalqaro tajribasi, rivojlanish tendensiyalari va samarali boshqaruv modellari keng yoritilgan.

**Muhokama.** Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmatining tizimli ko‘rinishga kelishi o‘tgan asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi va bu davrda xizmat ko‘rsatishning "Semashko modeli" [8.45-51] asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilgan Sovet davri tibbiyotining o‘ziga xosligi shunda ediki barcha tez yordam stansiyalari qat‘iy markazlashgan holda faoliyat yuritgan va ularning asosiy vazifasi bemorni shunchaki shifoxonaga yetkazib qo‘yishdan (transportirovka) iborat bo‘lgan O‘sha davrda Toshkent poytaxt sifatida eng ilg‘or tibbiy texnikaga ega bo‘lsa-da aloqa vositalarining yetishmasligi va dispetcherlik xizmatining mexanik usulda ishlashi chaqiriqlarga borish vaqtining cho‘zilishiga sabab bo‘lgan Tibbiy brigadalar tarkibi asosan umumiy soha shifokorlaridan iborat bo‘lib ixtisoslashgan (kardiologik reanimatologik yoki pediatrik) yordam ko‘rsatish imkoniyatlari bugungi kunga nisbatan cheklangan edi Biroq aynan shu davrda Toshkentda tez yordam xizmatining ilk ilmiy maktabi shakllandi va kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar tez tibbiy yordam xizmatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi Sovet davridagi "shifoxonaga yetkazish" konsepsiyasidan "joyida samarali

yordam ko'rsatish" tamoyiliga o'tildi Toshkent shahrida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining tashkil etilishi sohadagi eng muhim burilish nuqtasi bo'ldi [9.170.]. Bu tizim doirasida tez yordam brigadalari va shifoxonalar o'rtasida uzviy bog'liqlik ta'minlandi endilikda bemorga yo'l davomida reanimatsion yordam ko'rsatish imkoniyati paydo bo'ldi Poytaxt avtoparkining zamonaviy xorijiy rusumdagi reanimobillar bilan ta'minlanishi o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirish va "oltin soat" tamoyiliga amal qilish imkonini berdi Aynan shu bosqichda Toshkent shahri tez yordam xizmati Markaziy Osiyoda eng ilg'or va tizimli yo'lga qo'yilgan xizmatlardan biriga aylandi [10.22-28].

Bugungi kunda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmati to'liq raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi va GPS navigatsiyasining joriy etilishi chaqiriqlarga borish vaqtini o'rtacha 10-12 daqiqagacha qisqartirdi Endilikda har bir brigada planshetlar bilan ta'minlangan bo'lib bemor haqidagi ma'lumotlar u shifoxonaga yetib bormasidanoq qabul bo'limiga elektron tarzda yuboriladi Bu esa shifokorlarga bemorni qabul qilishga oldindan tayyorlanish imkonini beradi Shuningdek poytaxtda "103" xizmati dispetcherlik markazining yagona raqamli platformaga o'tkazilishi chaqiriqlarni saralash va ularni eng yaqin brigadaga yo'naltirish samaradorligini oshirdi Tahlillar shuni ko'rsatadiki raqamli texnologiyalar va tibbiy logistikaning uyg'unligi Toshkent shahri aholisiga ko'rsatilayotgan shoshilinch yordam sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqdi va kelgusida bu tizimni butun respublika bo'ylab kengaytirish uchun asosiy model bo'lib xizmat qiladi

O'zbekistonda tez tibbiy yordam tizimining poydevori o'tgan asrning boshlarida poytaxt Toshkentda qo'yilgan bo'lib sovet davrida ushbu xizmat markazlashgan boshqaruv tizimiga ega edi To'plangan ilmiy-tarixiy faktlar shuni tasdiqlaydiki dastlabki bosqichda texnik imkoniyatlar va tibbiy jihozlanish darajasi cheklangan bo'lishiga qaramay soha xodimlari tomonidan shoshilinch yordam ko'rsatishning o'ziga xos maktabi yaratilgan Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki mustaqillik yillarida tizim tubdan isloh qilindi va zamonaviy

raqamli texnologiyalar avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi hamda yuqori texnologik reanimobillar bilan ta'minlandi Muammoning yechimi sifatida tez tibbiy yordam xizmatini poytaxtning demografik o'sish sur'atlariga mos ravishda optimallashtirish va xalqaro tajriba asosida tibbiy brigadalar faoliyatini raqamlashtirishni yanada kuchaytirish taklif etiladi [11.148].

**Xulosa.** Toshkent shahri misolida tez tibbiy yordam xizmatining shakllanishi va faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki soha sovet davridagi oddiy yordam ko'rsatish shaklidan bugungi kundagi yuqori texnologik shoshilinch tibbiy tizimga qadar uzoq yo'lni bosib o'tdi Ilmiy tahlil natijasida erishilgan xulosalar shuni tasdiqlaydiki tez yordam xizmatining samaradorligi nafaqat moddiy-texnik bazaga balki boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy talablarga qanchalik moslashganiga ham bog'liqdir Mazkur maqolada ilgari surilgan takliflar kelgusida poytaxt aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarishda amaliy ahamiyat kasb etadi

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholi sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1996 (yangi tahrir 2021).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5270-son, 2017-yil 7-dekabr "Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-3583-son, 2018-yil 16-mart "Tez tibbiy yordam tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Tasvir, 2022. – 416 b.
5. Sodiqov A.S. O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini boshqarishni takomillashtirish: dissertatsiya. – Toshkent, 2020. – 156 b.
6. Karimov Sh.M. Tibbiyotda boshqaruv asoslari: monografiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 180 b.
7. World Health Organization. Emergency Medical Services Systems. – Geneva: WHO Press, 2018. – 98 p.
8. Rixsiyev S.S. Shoshilinch tibbiy yordam brigadalar faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari. // Tibbiyotda yangi kun jurnali. – Buxoro, 2023. – №2. – B. 45-51.
9. Ismoilov N.I. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi islohotlari tahlili. – Toshkent: Adolat, 2021. – 170 b.
10. Xolmatov B.A. Tez tibbiy yordam avtoparkini modernizatsiya qilish: Toshkent tajribasi. // Zamonaviy tibbiyot axborotnomasi. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 22-28.
11. Axmedova M.M. Tibbiy deontologiya va etika. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2021. – 148 b.